

Journal of Social Research in Uzbekistan**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jsru>**ANCIENT TURKIC TITLES UNDER THE RULE OF SUGD****Shokhruz Muradov**

Master's student

Karshi State University

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE**Key words:** Sugd, Ikhshid, Tarkhan**Received:** 25.09.24**Accepted:** 27.09.24**Published:** 29.09.24

Abstract: This article provides information about ancient Turkic titles under the rule of Sughd based on sources and literature. These titles in the administration of Sughd and their place and position in the administration of the state are described in detail.

SUG'D BOSHQARUVIDAGI QADIMGI TURKIY UNVONLAR**Shoxrux Murodov**

Magistratura talabasi

Qarshi davlat universiteti

Qarshi, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA**Kalit so'zlar:** Sug'd, ixshid, tarxon

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sug'd boshqaruvidagi qadimgi turkiy unvonlar haqida manba va adabiyotlar asosida ma'lumotlar berilgan. Sug'dning boshqaruvidagi ushbu unvonlar hamda ularning davlat boshqaruvidagi o'rni hamda mavqeyi haqida batafsil yoritilgan.

ДРЕВНЕТЮРКСКИЕ ТИТУЛЫ ПОД ВЛАСТЬЮ СУГДА**Шохруз Мурадов**

студент магистратуры

Каршинский государственный университет

Карши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Согд, Ихшид, Тархан

Аннотация: В данной статье на основе источников и литературы представлены сведения о древнетюркских титулах под властью Согда. Подробно описаны эти титулы

KIRISH

Sug‘d vohasi ilk o‘rta asrlarda dastlab Yeftalitlar (420-565), so‘ngra yesa Turk xoqonligi (552-744) qo‘l ostidagi Choch, Farg‘ona, Ustrushona, Buxoro, Xorazm va Toxariston kabi Amudaryo–Sirdaryo oralig‘idagi voqa hukmdorliklari - mulkliklardan bir bo‘lib, har ikkala saltanat ushbu hududlarni boshqarishda muayyan usullardan foydalangan. Ayniqsa, bu holat Turk xoqonligi davri bilan aloqador bo‘lgan yozma manba va numizmatik materiallarda o‘z ifodasiga yega. Bu davrga tegishli yozma yodgorliklar (xitoy, vizantiya, sug‘diy, arab-fors, qadimgi turk) va numizmatik materiallarga murojaat qilsak, ushbu hukmdorliklardan muayyan bir qismida mahalliy sulolalar boshqaruvi mavjud bo‘lganligi (asosan, Sug‘dning ayrim hukmdorliklari va Xorazmda), qolgan bir qismida yesa xoqonlik bilan u yoki bu darajada bog‘liq sulolalar hukm yuritgani ma‘lum bo‘ladi (Choch, Farg‘ona, Toxariston, Sug‘d va b.).

ASOSIY QISM

Sug‘d tarixiga to‘xtalgan izlanuvchilarning ko‘pchiligi bu davrda vohani sug‘diy sulolalar boshqarganligi, Yeftalitlar va Turk xoqonligining Sug‘ddagi boshqaruvi nisbiy bo‘lganligi, ular bu yerdagi mahalliy hukmdorliklarning boshqaruv ishlariga deyarli aralashmaganligi va asosan o‘lpon olib turish bilan cheklanganliklari, voqa boshqaruvchilarining yetnik tarkibida o‘zgarish unchalik darajada sezilmasligi ta‘kidlashgan. Shuningdek, Sug‘d hukmdorliklarining tarkibi, boshqaruvi, markaziy va vassal shakllari, mavjud unvonlar tizimi, ular orasidagi umumiylik va o‘ziga xosliklar, o‘xshash va farqli jihatlar borasida ham bir-biriga zid fikrlar bildirilgan bo‘lib, ular orasida o‘sha davr real voqealigiga mos yoki ko‘pchilikni murosaga keltiradigan ustuvor fikrlarni ajratib olish qiyin. Masalan, ayrim tadqiqotchilar Sug‘dni “podsholik” deb atasalar, boshqa bir guruh tadqiqotchilar yesa Sug‘ddagi har bir tarixiy geografik viloyat va tumanni, boshqacha aytganda sub‘ektni “hukmdorlik” yoki “voqa hukmdorliklari” deb atashni ma‘qul ko‘rmoqdalar.[1]

Sug‘d boshqaruvi va mahalliy sulolalarning yetnik tarkibi masalasidagi fikrlar orasida bu tariqa tafovutlar kelib chiqishining zahirida nima yotibdi? Masalaga quyidagi sahifalarda kengroq diqqat qaratishimizni ta‘kidlagan holda avvalo shuni aytib o‘tishimiz zarurki, Sug‘d tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlarning ko‘pchiligi asosan aniq bir masalaga yemas, aksincha vohaning umumiy tarixini yoritishga bag‘ishlanganligi, turli manba ma‘lumotlarining o‘zaro solishtirilmaganligi, aynan boshqaruv tizimi va sulolalarning kelib chiqishini aniqlashga qaratilgan maxsus tadqiqotlarning kamligi bu masalalarda munozarali fikrlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lgan. Shuningdek, voqa tarixini yoritishda ayrim hissiy va biryoqlama yondashuvlarning uchrashi masalaning yanada chigallashiga olib kelgan.

Ilk oʻrta asrlarda Sugʻd vohasining boshqaruv shaklini koʻpchilik tadqiqotchilar asosan quyidagicha tushuntiradilar:

Muayyan bir konfederatsiya shaklidagi boshqaruvga yega boʻlgan Sugʻd bir qator bir-biridan mustaqil kichik mulklardan, yaʼni mayda hukmdorliklardan iborat boʻlib, ular orasida dastlab Kesh (VII asrning oʻrtalarigacha), keyinchalik yesa Samarqand (VII asr ikkinchi yarmidan – VIII asr ikkinchi yarmigacha) markaziy hokimiyat vazifasini bajargan.[2] Shu bilan birgalikda, Sugʻd konfederatsiyasi dastlab Yeftalitlar, soʻngra yesa Turk xoqonligi qaramogʻidagi yarim mustaqil, oʻz ichki boshqaruvida boʻlsa mustaqil ish yuritgan. Mazkur ikki hukmdorlik (Camarqand va Kesh) boshqalariga nisbatan siyosiy jihatdan ustun boʻlib, Sugʻd konfederatsiyasining markaziy hokimiyati maqomiga yega boʻlishgan, xalqaro maydonda yeʼtirof yetilib, umum Sugʻd nomidan ish yuritishgan va kezi kelganda tashqi dushmanga qarshi barcha Sugʻd hukmdorliklarini bitta ittifoqqa birlashtirganlar. Shuningdek, yeʼtiqod va boshqa masalalar bilan bogʻliq marosimlarni bajarishda ham mazkur hukmdorliklar tashkilotchilik vazifasini bajarishgan. Kichik mulklar (qishloqlar va nisbatan yirik maʼmuriy birliklar, yaʼni rustoqlar) *dehqon* unvonli mahalliy hokim tomonidan boshqarilib, ular muayyan hukmdorlikning markaziy shahrida oʻtiruvchi hukmdorga boʻysunishgan. Shu bilan birgalikda, bunday hukmdorlar Sugʻd konfederatsiyasining markaziy boshqaruvi maqomidagi *ixshid* unvonli hukmdorga tobe boʻlishgan.

Ushbu fikr tarafdorlarining fikricha, oʻz navbatida Yeftalitlarga, keyinroq yesa uning oʻrnini yegallagan Turk xoqonligiga qaram boʻlgan Sugʻd hukmdorlari mazkur imperiyalarga oʻlpon toʻlab, yarim mustaqil, baʼzan yesa deyarli toʻla mustaqil davlat sifatida hokimiyat yuritishgan. Ayniqsa, Turk xoqonligining Sugʻd ustidagi hokimiyati nisbiy boʻlib, oʻz boshqaruvini saqlab qolgan mahalliy sulolalar bilan hoqonlik orasidagi aloqalar anchagina zaif boʻlgan. Bunga Turk xoqonligining markazlashmagan hokimiyat shakli ham taʼsir koʻrsatgan. [3]

Sugʻd konfederatsiyasida asosan mahalliy (sharqiy yeroniy) boshqaruv shakli amal qilib, hukmdorlar va amaldorlar oʻzlarining sugʻdiy unvonlari bilan hukm yuritishgan. Samarqand va Keshda mahalliy unvonlar orasida nisbatan mavqei yuqori boʻlgan unvonlar – *ixshid* (Samarqandda) va *ixrid* / *ixshid* (Keshda), qolganlarida yesa *xuv* / *xuvu* yoki *xudot* unvonlari bosh unvon sifatida amal qilgan. Turk xoqonligi davrida Sugʻdning bir qator hukmdorliklarida *yeltabar*, *choʻr*, *tarxon* kabi turkiy unvonlar qoʻllanila boshlashi yesa mazkur hukmdorliklarning xoqonlik qoʻl ostida boʻlishi va mahalliy hukmdorlarning oʻz davrida “rusum” (moda) boʻlgan bu unvonlarni oʻzlariga qabul qilib olishlari natijasidir.

Asosan yaqin yillarda oʻrtaga tashlangan va hanuz keng yoyilmagan va unchalik koʻp tarafdor topmagan ikkinchi guruh tadqiqotchilarining fikricha, Sugʻdning boshqaruv shakli, garchi yuqorida keltirilganidek mahalliy asosga yega boʻlib, boshqaruvda anʼanaviylik ustuvor boʻlishi barobarida Yeftalitlar va Turk xoqonligining taʼsir doirasi ancha keng boʻlgan va uzviylik kasb yetgan. Yaʼni

mazkur imperiyalar, xususan Turk xoqonligining Sug'd boshqaruvida, shuningdek xoqonlik va sug'diy hukmdorliklar orasidagi siyosiy aloqalar muayyan bir tizim asosida amalga oshirilgan. Ularning fikricha, xoqonlik Sug'd boshqaruviga bevosita va bilvosita aralashgan bo'lib, Sug'dning bir qator hukmdorliklarida turkiy va turkiy-sug'diy aralash sulolalarning o'rtaga chiqishi, boshqaruvda turkiy unvonlarning paydo bo'lishi va ularning qadimgi turk boshqaruv tizimiga mos ravishda Sug'dda ham o'z ierarxiasini saqlashi bunga asos bo'laoladi. Shuningdek, ushbu tadqiqotchilarga ko'ra Turk xoqonligini markazlashmagan va vassallar boshqaruvi nisbatan zaif davlat deb baholash xoqonlik tarixining yaxshi o'rganilmagani hamda xoqonlik boshqaruv tizimining mohiyatan yetarlicha tushunib yetilmaganining natijasidir.

Bizningcha, har ikkala guruh tadqiqotchilarining ham mazkur talqinlarining o'ziga xos haqqoniy va munozarali tomonlari bor. Chunonchi, ilk o'rta asrlar Sug'd siyosiy tarixiga oid manbalarni chuqurroq nazar tashlash bunday fikrga kelishimizga imkon beradi. Shuningdek, xitoylik mualliflar tomonidan Sug'd boshqaruvi, xususan bu yer ustidan o'rnatilgan xoqonlik hokimiyati masalasida berilgan ma'lumotlar anchagina qisqa bo'lib, faqatgina ular asosida aniq bir to'xtamga kelish qiyin. Arab-fors manbalari yesa asosan arab istilosi va unga qarshilik ko'rsatgan Sug'd va O'rta Osiyoning boshqa hukmdorliklari voqeliklarini yoritganligi bois ular asosida bu darvdagi boshqaruv shaklining to'liq mohiyatini aniqlash ancha mushkul. Bu holat mazkur hukmdorliklar va Turk xoqonligi bilan vassallik masalasida ayniqsa yaqqol seziladi.

G'. Boboyorovning fikricha, "na Sug'dda uchraydigan turkiy asosli hukmdor ism va unvonlari va na yozma manbalardagi uzuq-yuluq ma'lumotlar bu yerdagi mahalliy sulolalarning ko'pchiligining kelib chiqishi turkiy yoki sug'diy negizga yega yekanligi haqida aniq xulosa chiqarishga imkon bermaydi. Chunki bu davrda ham Sug'ddagi aholi, ham Markaziy Osiyoning turkiy yetnoslar ko'pchilikni tashkil qiladigan qismlaridagi aholi orasida sug'diy va turkiy nufuz ancha keng yoyilgan bo'lib, ular madaniy va siyosiy jihatdan anchagina bir-biriga katta ta'sir ko'rsatgan yedilar. Shu bois, har ikkala yetnos vakillari orasida u yoki bu yetnosning ism va unvonlari uchrashi anchagina tabiiydir. Bu masalani to'liqroq tushinishda asosan numizmatik materiallar asqotadi. Chunki Sug'dning biror bir hukmdorligida turkiy ism va unvonlar bilan birgalikda turkiylarga xos ikonografiya va ramzlarning uchrashi bu holatning jo'n bir shaklda o'rtaga chiqmaganligini, aksincha xoqonlikning boshqaruvda qo'llagan muayyan bir tizimi bilan aloqador yekanligini ko'rsatmoqda".

Shuningdek, tadqiqotchining "Sug'd va unga o'xshash vassal voha hukmdorliklarida, xususan, Sharqiy Turkiston (Turfon, Kucha, Qorashahr, Oqsu, Koshg'ar, Xutan), Amudaryo va Sirdaryo oralig'i (Farg'ona, Choch, Ustrushona, Sug'd, Toxariston, Xorazm), Xuroson (Dehiston, Gurgon, Marv) va Shimoliy Hindiston (Kobuliston, Gandxara)da xoqonlik o'ziga xos vassallar boshqaruvi tizimini o'rnatgan yedi. Ya'ni, ularning ko'pchiligining mahalliy sulola boshqaruvchisiga turkiy

eltabar unvonini berib, nazorat uchun *tudun* – noiblar yuborgan yedi. Ularning bir qanchasida VI asrning so‘nggi choragidan VIII asrning boshlarigacha ushbu unvonlarning uchrashi bunday fikrga asos beradi. Ya‘ni qariyb 150 yil mobaynida *yeltabar* va *tudun* unvonlarining vassallar boshqaruvida uchrashi bejiz yemas. Ilk bor xoqonlik bilan aloqador ravishda 580- yillarda Gaochan (Turfon) hukmdorligi boshqaruvida ko‘rina boshlagan ushbu unvonlar 720- yillarda Sug‘dning Panch hukmdorligi boshqaruvida qayd yetilishi buning yaqqol ifodasidir” mazmunidagi fikrlari diqqatga sazovordir. To‘g‘ri, Turk xoqonligi Sug‘dning an‘anaviy ichki boshqaruv shaklini o‘zgartirmagan yedi. Biroq uni nazoratda tutish, soliq va o‘lponlar yig‘ilishini uyushtirish, o‘rni kelganda harbiy harakatlarda ishtirok yetish kabi tobe hukmdorlar zimmasiga yuklatiladigan majburiyatlarni boshqa vassal hukmdorliklar qatorida Sug‘d ustidan ham joriy qilganligi ko‘zga tashlanadi. Bu kabi syuzeren va vassal orasidagi munosabatlarga aloqador ma‘lumotlar yozma manbalarda ancha-muncha uchrab turadi. Agar bu masalaga Sug‘d misolida qisqacha nazar tashlaydigan bo‘lsak, quyidagi ma‘lumotlarga yega bo‘lamiz:

1. *Tashqi aloqalar.* Yunon manbalarida keltirilishicha, Vizantiya yelchilari 560-yillarning oxirlari – 570- yillar mobaynida Turk xoqonligi boshqaruv markaziga, ya‘ni Yek-tog‘ (Yulduz vodiysi)ga tashrif buyurib, qaytib ketishayotganida vassal hukmdorliklarning ham Vizantiyaga yelchi yuborishga izn so‘rab xoqonlikka murojaat qilishi qisqacha bayon yetilib, turk xoqoni mavjud vassal (hukmdorliklar)dan faqat Xvalis (Xorazm)liklarga yelchi yuborish uchun ruxsat bergani ta‘kidlanadi. Bu yesa xoqonlik tomonidan Sug‘d hukmdorlarining ham tashqi aloqalarining cheklangani yoki nazoratga olingan yedi mazmunida taxmin qilishga imkon beradi. To‘g‘ri, VII–VIII asrlarda bir necha Sug‘d hukmdorliklarining Xitoyga yelchilar yuborganligi yilnomalarda qayd yetiladi. Biroq bu kabi voqealar asosan, yo xoqonlikning markaziy hokimiyatida yuz bergan vaqtinchalik siyosiy inqirozlar (isyonlar, taxt-talashuvlari va h.k.) yoki xoqonlik ustidan Xitoy ustunligini o‘rnatilgan paytlarga to‘g‘ri kelgan. Shu bilan birgalikda, Sug‘d va boshqa vassallarining Xitoyga yelchi yuborishi xoqonlik tomonidan cheklangani yoki cheklanmaganini tasdiqlaydigan ma‘lumotlar ham deyarli mavjud yemas. Har holda ular bu masalada ancha yerkin bo‘lgan ko‘rinadi.

2. *Harbiy majburiyatlar.* Turk xoqonligi o‘z qo‘l ostidagi vassallarga, garchi xoqonlikning barcha harbiy harakatlarida ishtirok yetish yoki moddiy tomondan yordam berish majburiyatini yuklagan bo‘lmasa-da, zaruriy vaqtlarda xoqonlik tomonidan vassallarga shunga o‘xshash talablar qo‘yilgani yehtimoli yuqori. Xususan, VII asr oxiri – VIII asr ilk yarmida Arab istilosiga qarshi kurashda Amudaryo – Sirdaryo oralig‘i va unga qo‘shni hududlardagi Choch, Farg‘ona, Sug‘d, Toxariston hukmdorlari ittifoqiga boshchilik qilgan turk xoqonlarining mazkur ittifoqdoshlardan qo‘nalg‘a berish, askar talab qilish, ozuqa va qurol-aslaha yetkazib berish, otlarni yemish bilan ta‘minlash va hokazo kabi talab qilingani asosan arab-fors va qisman yesa boshqa tillardagi ma‘lumotlar asosida o‘z tasdig‘iga yega. Jumladan, arab manbalarida Samarqand hukmdori G‘urak

(738 y.) arablar bilan uchrashganda o'zini xoqonning qullaridan va chokar (xos askar)laridan biri sifatida ta'riflaydi. Shuningdek, Mug' tog'i hujjatlaridan V-17 raqamli hujjat (maktub)dan ma'lum bo'lishicha, arab istilochilari hujumlari paytida Panjikent hukmdori Devashtich (709-722), xoqondan o'ziga «yuksak martaba va yehtirom» kelganligini ta'kidlanishi barobarida turk lashkarchilari o'z qo'shinlari bilan kelib joylashgan joy (qo'nalga) haqida so'z yuritiladi.

3. *Nikoh aloqalarining yo'lga qo'yilishi.* Turk xoqonlari qo'shni davlatlar va o'z vassallari (ham qo'l ostidagi ko'chmanchi qabilalar boshqaruvi, ham o'troq hukmdorliklar) bilan nikoh aloqalari o'rnatgan bo'lib, Xitoy, Sosoniylar Yeroni va Vizantiya kabi qo'shni davlatlardan qiz olish yoki qiz berish yo'lga qo'yilgan bo'lsa, vassallarga asosan qiz berganligi ko'zga tashlanadi. Xususan, "Tan shu" yilnomasida 590620 yillarda Samarqandni boshqargan 2 nafar mahalliy hukmdor (Tayshebi/Shashebi va Kyuymuchji)ning G'arbiy turk xoqonlariga kuyov bo'lib, "turklarga bo'ysunganligi" va Sug'ddagi qolgan hukmdorliklar ustidan ustunlikka yega bo'lganligi alohida ta'kidlanadi. Bir qator tadqiqotchilarning fikricha, Devashtich turk hukmdorlaridan biriga kuyov bo'lgani uchun ham amaldagi Panch hukmdori bo'lgan, biroq huquqiy jihatdan tanga zarb qilish vakolati bo'lmagan, shu bois Panch tangalari bir muddat uning xotini, ya'ni turk hukmdorining qizi nomidan zarb qilingan.

Sug'd va boshqa voha hukmdorliklar bilan Turk xoqonligi o'rtasidagi nikoh munosabatlari masalasi birmuncha o'rganilgan bo'lib, J.K.Skeffning fikricha "Itoatda tutish uchun mutanosib (maqbul) vositalarning yeng yaxshi usuli ko'chmanchilar va o'troq hukmdorlar orasida nikoh aloqalarini yo'lga qo'yish yedi. Xitoy yilnomalarida ushbu usulning oltita misolini topdim. Bittasini hisobga olmaganda, barcha voqealarda ushbu usul turklarning aslzoda bir ayolni turmush qurish uchun o'troq boshqaruvchiga uzatishi tarzida yedi. Xitoy yilnomalaridan mazkur nikoh munosabatlariga ortiqcha ye'tibor berilmaganiga va faqatgina yo'l-yo'lakay qayd qilinib ketishiga qaramay, ushbu usul haqida bir qator muhim tasavvur hosil qilishimiz mumkin. Balki bu qiz olibqiz berish keng miqyosda dasht va voha o'rtasidagi aloqalarni kuchaytiruvchi vosita sifatida yo'lga qo'yilganini ko'rsatsa kerak.

Nikoh aloqalari vositasida siyosiy munosabat o'rnatish (ittifoq tashkil qilish) ko'chmanchilar siyosiy madaniyatining o'ziga xos xususiyatidir. Ushbu usul boshqa qabilalar bilan o'rnatilgan nikoh aloqalariga tayanuvchi ko'chmanchi urug' va qabilalar orasida yo o'zaro bir-biriga hujum qilmaslik signali yoki "istilolar uchun bir qo'shimcha chora" sifatida amalga oshirilgan. Voha davlatlari va qabilalar boshqaruvchilari orasida amalga oshirilgan nikoh munosabatlari ko'chmanchilarining o'troq mintaqalarda nazorat muammosini hal yetish uchun qo'llanilganidan darak beradi. Shu o'rinda ko'chmanchilar odaticha, asosan kelin bergan tomonning kelin olgan tomondan ustun yekanini ko'zda tutganini ham ta'kidlab o'tish zarur". G'. Boboyorov yesa bunday munosabatlarni xoqonlik davrida yo'lga qo'yilgan va hanuz "ko'rtak" shaklida bo'lgan "ko'ragonlik tizimi" deb ataydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бабаяров Г., Кубатин А. К вопросу о монетах Согда с титулом «хатун» // Согдийский сборник. Новейшие исследования по истории и истории культуры Согда в Узбекистане / Под. ред. Ш. Камолиддин. – Berlin: LAP Lambert Academic Publishing, 2013. – С. 79-87.
2. Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. Бронза. М., 1981, с. 34-36
3. Бабаяров Г. Государственный строй Западно-Тюркского каганата». Автореф. дисс. на соискание ученой степени д.и.н. Ташкент: ИВ АН РУз, 2012, с. 7, 41-43; Boboyorov G‘. Sug‘d boshqaruvidagi “eltabar” va “tarxon” unvonlariga doir // Markaziy Osiyo xalqlari tarixi manbashunosligi va tarixshunosligi masalalari. V Respublika konferentsiya materiallari. 5-ilmiy to‘plam. 2-qism [Toshkent davlat sharqshunoslik instituti; mas’ul muharrir M.M. Ishoqov]. T., 2013. B. 67-78
4. Согдийские документы с горы Муг. Чтение, Перевод. Комментарий. Вып. II. Юридические документы и письма / Чтение, перевод и комментарии В. А. Лившица. – М.: Вост. лит., 1962. – С. 115, 117; Grenet F., de la Vaissiere E. The last days..., – P. 157
5. Otaxo‘jaev A. Sug‘d shahrining turk hokimi // Sharqshunoslik, TDSHI, №2, 2001. – B. 40-42.
6. Iskandarov, S. A. (2024). Settlement of arabs who moved to central asia. Current research journal of history, 5(05), 25-28.